

AXBOROT MANIPULYATSIYASI VA IJTIMOIIY TARMOQLARGA BOG'LIQLIKNING YOSHLAR MADANIY KAMOLOTIGA TA'SIRI

Asomiddin Kurbonkulovich XUDAYBERDIYEV

dotsent

Falsafa fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida axborot manipulyatsiyasi va ijtimoiy tarmoqlarga bog'liqlikning yoshlar madaniy kamolotiga ko'rsatayotgan ta'siri ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Unda virtual muhitning psixologik ta'siri va axborot manipulyatsiyasi yashirin mexanizmlarining yoshlarning axloqiy, estetik va madaniy rivojlanishiga salbiy ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, mediasavodxonlik va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish orqali yoshlarning madaniy immunitetini mustahkamlash zarurligi asoslangan.

Tayanch so'zlar: axborot manipulyatsiyasi, ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar, madaniy kamolot, ommaviy madaniyat, media savodxonlik, tanqidiy tafakkur.

ВЛИЯНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ МАНИПУЛЯЦИИ И ЗАВИСИМОСТИ ОТ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА КУЛЬТУРНОЕ РАЗВИТИЕ МОЛОДЕЖИ

Асомиддин Курбонкулович ХУДАЙБЕРДИЕВ

доцент

Доктор философии (PhD) по философским наукам

Ташкентский государственный медицинский университет

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В данной статье с социально-философской точки зрения анализируется влияние информационной манипуляции и зависимости от социальных сетей на культурное становление молодежи в условиях цифрового общества. Раскрывается негативное воздействие виртуальной среды и скрытых механизмов информационной манипуляции на нравственное, эстетическое и культурное развитие молодежи. Также обосновывается необходимость развития медиаграмотности и критического мышления как важного условия укрепления культурного иммунитета молодежи.

Ключевые слова: Информационная манипуляция, социальные сети, молодежь, культурное становление, массовая культура, медиаграмотность, критическое мышление.

Zamonaviy raqamlashgan jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib, ularning dunyoqarashi, xulq-atvori va madaniy qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarda

keng tarqalayotgan manipulyativ axborotlar yoshlarning ongiga yashirin ta'sir ko'rsatib, ularning tanqidiy fikrlashi va madaniy kamolotiga salbiy ta'sir qilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog'liqlik esa real ijtimoiy munosabatlar va madaniy faoliyatning susayishiga olib kelmoqda. Shu bois, axborot manipulyatsiyasi va ijtimoiy tarmoqlarga bog'liqlikning yoshlar madaniy kamolotiga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev virtual makonda noxolis axborotlarni tarqatish, jamoatchilik fikrini chalg'itish va diskriminatsiya holatlariga qarshi kurashish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda [3]. Davlat rahbari tomonidan virtual makonda yolg'on va manipulyativ axborotlarning keng tarqalishi jamiyat barqarorligiga, ayniqsa yoshlarning ongi va ijtimoiy pozitsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligiga bejiz urg'u berilmagan.

Shu o'rinda axborot manipulyatsiyasining mohiyatiga e'tibor qaratilganda, bu ma'lumotni ma'lum bir maqsad yoki auditoriya ongini boshqarish uchun qasddan o'zgartirish, tahrirlash yoki taqdim etish deb hisoblash mumkin. U haqiqatni butunlay yashirish, qisman buzish yoki noto'g'ri talqin qilish orqali odamlarning qarashlari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini boshqarishga xizmat qiladigan tushunchadir.

Axborot manipulyatsiyasi yoshlar ongiga ikki qarama-qarshi ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, u keng axborot resurslariga kirish imkonini yaratadi, shu orqali global bilim va madaniyatga kirish imkoniyatlarini oshiradi. Boshqa tomondan, virtual makon bilan cheklangan madaniy tajribaga qaramlik yoshlarning mustaqil estetik va madaniy qaror qabul qilish qobiliyatini susaytiradi [7]. Shu sababli, axborot manipulyatsiyasi va ijtimoiy tarmoqlarga bog'liqlikka yoshlar madaniy kamolotini o'rganishda dolzarb va murakkab ilmiy muammo sifatida qaraladi.

Bugungi kunda "Media makonimizga ilg'or loyiha va texnologiyalar, yangicha mulkiy munosabatlar jadal kirib kelmoqda. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan 2 ming 400 ga yaqin ommaviy axborot vositalarining 65 foizi

nodavlat sektor hissasiga to'g'ri kelayotgani, xususiy nashrlar, teleradiokanallar, internet resurslari tobora ortib, ulardan foydalanuvchilar soni 14,7 milliondan 32,7 millionga yetgani, axborot kontentlarini yaratuvchilar safi kengayib borayotgani" [2] aholi, xususan yoshlar uchun keng axborot olish imkoniyatlarini yaratishi bilan birga, turli mazmundagi, jumladan, noxolis va manipulyativ axborotlar ta'siriga tushib qolish xavfini ham kuchaytirmoqda. Bu esa, yoshlarda axborotni tanlab qabul qilish, tanqidiy fikrlash va media madaniyatni shakllantirish masalasining dolzarbligini yanada oshiradi.

Raqamli texnologiyalar va global axborot tarmoqlarining jadal rivojlanishi zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-madaniy qiyofasini tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib, ularning dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va madaniy qadriyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, axborot makonining kengayishi yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatishning yangi, ko'pincha yashirin shakllarini yuzaga chiqaradi.

Axborot manipulyatsiyasi va ijtimoiy tarmoqlarga bog'liqlik masalasi bugungi kunda nafaqat psixologik yoki texnologik muammo, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayon yoshlarning madaniy kamoloti, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabati hamda estetik didining shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, yoshlarning madaniy rivojlanishi faqat ta'lim va tarbiya bilan emas, balki ularning axborot oqimi va raqamli muhit bilan munosabatini tahlil qilish orqali ham samarali boshqarilishi mumkin. Shu maqsadda matnda ko'zda tutilgan asosiy vazifa – axborot manipulyatsiyasi va ijtimoiy tarmoqlarga bog'liqlikning yoshlar madaniy kamolotiga ijtimoiy-falsafiy ta'sirini chuqur tahlil qilish, shuningdek, ushbu jarayonni boshqarish va yoshlarning madaniy immunitetini mustahkamlash yo'llarini aniqlashdan iboratdir.

Axborot jamiyati sharoitida bilim va axborot inson faoliyatining asosiy resursiga aylangan bo'lsa-da, axborotning haddan tashqari ko'pligi har doim ham madaniy yuksalishga xizmat qilmaydi. Aksincha, nazoratsiz va tartibsiz axborot oqimi yoshlar ongida parchalangan, yuzaki va tezkor tafakkurni shakllantirmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda axborot ko‘pincha emotsional ta’sir, vizual joziba va ommaviylik mezonlari asosida tarqatiladi, bu esa chuqur tahlil va ongli tanlov imkoniyatlarini cheklaydi.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, bunday sharoitda yoshlar tobora ko‘proq axborot iste’molchisi va manipulyativ ta’sir obyekti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Algoritmik tavsiyalar tizimi foydalanuvchining qiziqishlarini oldindan belgilab, axborot tanlovini cheklaydi va “axborot pufagi”ni vujudga keltiradi. Natijada yoshlar turli qarashlar va madaniy nuqtai nazarlar bilan to‘qnash kelish o‘rniga, faqat biryoqlama axborot makonida qolib ketmoqda.

Axborot manipulyatsiyasi yoshlar ongiga yashirin va maqsadli ta’sir ko‘rsatish orqali ularning qarashlari va xulq-atvorini shakllantiradi. Yolg‘on yoki selektiv axborot, trendlar va ommaviylik bosimi, shuningdek, emotsional ta’sir vositalari yoshlarning madaniy tanlovlarini boshqarishga xizmat qilmoqda. Tajribaning yetarli emasligi va tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarining sust rivojlanganligi yoshlarni bunday manipulyativ jarayonlarga yanada moyil qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarga bog‘liqlik fenomeni esa yoshlar hayotida virtual muloqotning real madaniy tajribadan ustun qo‘yilishi bilan ifodalanadi. Virtual makonda doimiy mavjud bo‘lish ehtiyoji vaqtini samarasiz sarflash, real ijtimoiy aloqalarning susayishi va madaniy faoliyatga qiziqishning kamayishiga olib kelmoqda. Falsafiy jihatdan bu jarayon insonning o‘z ijtimoiy va madaniy mohiyatidan begonalashuvi sifatida talqin etilishi mumkin. Madaniy kamolot shaxsning axloqiy, estetik va intellektual rivojlanish darajasini ifodalaydi. U milliy madaniyatni anglash, san’at va adabiyotga ongli munosabatda bo‘lish, madaniy xulq me’yorlariga amal qilish orqali namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda ustuvor bo‘lgan soddalashtirilgan va ommaviy kontent esa yoshlarning estetik didini pasaytirib, madaniyatni chuqur anglash emas, balki tezkor iste’mol qilish obyektira aylantirmoqda.

Global axborot makoni orqali tarqalayotgan ommaviy madaniyat yoshlarning milliy va madaniy identikligiga sezilarli ta’sirini o‘tkazmoqda. Bu jarayon madaniy birlik, an’anaviy qadriyatlarning chekinishi va

kosmopolitizmning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Natijada yoshlar o'z madaniy ildizlaridan uzoqlashish va identiklik inqiroziga duch kelish xavfi bilan to'qnashmoqda.

Shu o'rinda, yoshlarning madaniy kamolotini ta'minlashda media savodxonlik va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar axborotni tanlash, tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lsagina, manipulyativ ta'sirlarga qarshi turish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'lim muassasi, oila, mahalla va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bu jarayonda o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, axborot manipulyatsiyasi va ijtimoiy tarmoqlarga bog'liqlik yoshlar madaniy kamolotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, kontent tahlili yoshlar orasida eng ko'p iste'mol qilinadigan media materiallar – qisqa videolar, memlar, trend challengelar va “influencer” postlari – ularning estetik didi va madaniy qadriyatlariga ta'sir qilayotganini ko'rsatdi. Bu kontent ko'pincha soddalashtirilgan va tez iste'mol qilinadigan bo'lib, yoshlarning chuqur madaniy anglash jarayonlarini cheklaydi.

Shuningdek, so'rov natijalari yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga kunlik bog'liqligi va media tanqidiy tafakkur darajasi o'rtasida salbiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Ya'ni, tarmoqlarga ko'p vaqt ajratadigan yoshlar chuqur madaniy materiallarni o'rganishga kam vaqt ajratadi va madaniy tanlovlarida avtomatik, ko'pincha algoritmik boshqaruvga bog'liq qarorlar qabul qiladi. Shu bilan birga, media savodxonligi yuqori bo'lgan guruhlar yoshlar madaniy kamolotini mustahkamlashga va virtual manipulyatsiyadan himoyalaniishga qodir ekanligi aniqlangan. Umuman olganda, natijalar axborot manipulyatsiyasi va algoritmik boshqaruv yoshlarning madaniy tanlovi, estetik didi va madaniy identifikatsiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, axborot manipulyatsiyasi va ijtimoiy tarmoqlarga bog'liqlik yoshlar madaniy kamolotiga faqat alohida omil sifatida emas, balki kompleks ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatida ta'sir ko'rsatmoqda. Bu

ta'sir yoshlarning madaniy ongi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy o'zini anglash shakllarida namoyon bo'ladi.

Avvalo, algoritmik boshqaruv asosida shakllanayotgan axborot muhiti yoshlarning erkin madaniy tanlov imkoniyatlarini cheklamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchi qiziqishlarini tahlil qilgan holda, unga muayyan kontentni taklif etadi va shu orqali dunyoqarashni bosqichma-bosqich yo'naltiradi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu holat shaxs erkinligi va madaniy avtonomiyaning yashirin cheklanishi sifatida talqin qilinishi mumkin. Yosh inson axborotni erkin tanlayotgandek tuyulsa-da, aslida uning madaniy tajribasi oldindan belgilangan axborot doirasi bilan chegaralanadi.

Ijtimoiy tarmoqlarga bog'liqlik esa yoshlarning real madaniy muhit bilan munosabatini zaiflashtirib, virtual makonni ustuvor qadriyatga aylantirmoqda. Bu holat klassik ijtimoiy falsafada ta'riflangan begonalashuv (alienatsiya) tushunchasi bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi. Yoshlar o'z madaniy mohiyatini real ijtimoiy tajribadan emas, balki virtual obrazlar, layklar va trendlar orqali anglay boshlaydi. Natijada madaniy kamolot tashqi e'tirof va raqamli faollik bilan o'lchanadigan jarayonga aylanib qolmoqda.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, ommaviy madaniyatning ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqalishi yoshlar madaniy didi va estetik qarashlarini soddalashtirmoqda. Qisqa, vizual va tez iste'mol qilinadigan kontent madaniyatni chuqur anglash emas, balki tezkor qabul qilishga moslashtiradi. Bu esa madaniy kamolotning muhim shartlaridan biri bo'lgan refleksiya va ma'naviy mushohadani cheklaydi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari axborot manipulyatsiyasi va ijtimoiy tarmoqlarga bog'liqlikni mutlaqo salbiy fenomen sifatida baholash to'g'ri emasligini ham ko'rsatadi. Raqamli platforma va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun yangi madaniy imkoniyatlar, ijodiy ifoda va global madaniy muloqot maydonini ham yaratmoqda. Masala texnologiyalarda emas, balki ulardan foydalanishdagi madaniy va falsafiy ong darajasida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, muhokama jarayoni yoshlar madaniy kamolotini ta'minlashda media savodxonlik va tanqidiy tafakkurni strategik ahamiyatga ega

omil sifatida ko'rsatadi. Tanqidiy fikrlashga ega yosh inson axborotni faqat qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi va baholovchi subektga aylanadi. Bu esa manipulyativ ta'sirlarni zaiflashtirib, madaniy mustaqillikni kuchaytiradi.

Ijtimoiy-falsafiy jihatdan, mazkur muammoni hal etish davlat, jamiyat va ta'lim tizimining uyg'un hamkorligini talab qiladi. Ta'lim muassasalari yoshlarda raqamli madaniyat, axborot mas'uliyati va madaniy tanlov madaniyatini shakllantirishi lozim. Oila esa qadriyatlarning uzluksizligini ta'minlovchi muhit sifatida muhim o'rin tutadi. Fuqarolik jamiyati institutlari esa yoshlarning ijtimoiy va madaniy faolligini rag'batlantirish orqali ularni passiv axborot iste'molchisidan faol madaniy subektga aylantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, axborot manipulyatsiyasi va ijtimoiy tarmoqlarga bog'liqlik yoshlar madaniy kamolotiga ziddiyatli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonni boshqarish va ijobiy yo'naltirish faqat texnik cheklovlar bilan emas, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, axborot manipulyatsiyasi va ijtimoiy tarmoqlarga bog'liqlik yoshlar madaniy kamolotiga murakkab va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi. Raqamli axborot makoni yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, madaniy va ma'naviy xavflarni ham yuzaga chiqaradi. Shu sababli, yoshlarning madaniy immunitetini mustahkamlash va ularni ongli, tanqidiy axborot iste'molchisi sifatida shakllantirish zamonaviy jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning madaniy kamoloti faqat ta'lim va tarbiya orqali emas, balki ijtimoiy tarmoqlar va axborot oqimi bilan munosabatlarini tizimli boshqarish orqali ham ta'minlanishi mumkin. Media savodxonlikni rivojlantirish, tanqidiy tafakkur va refleksiv madaniy tanlov yoshlarni virtual manipulyatsiyadan himoya qiladigan, ularni madaniy jihatdan mustaqil va barqaror shaxs sifatida shakllantiradigan asosiy vositalar sifatida qaraladi.

Shunday qilib, axborot oqimi va raqamli muhit yoshlarning madaniy rivojlanishidagi yangi omillar sifatida e'tiborga olinishi va ular bilan ishlash strategik yondashuv sifatida rivojlantirilishi zarur. Bu jarayon nafaqat yoshlarning shaxsiy kamoloti, balki jamiyatning madaniy va ma'naviy barqarorligi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида: Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентябрь Қонуни. WWW.Lex.uz
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022.
3. О'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga bayram tabrigi"dan 27.06.2025 y. <https://president.uz/uz/lists/view/8610>
4. О'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning YUNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. 30.10.2025. <https://president.uz/uz/lists/view/8610>.
5. О'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «30 iyun - Yoshlar kuni» munosabati bilan 30.06.2023-yil О'zbekiston yoshlariga bayram tabrigidan.
6. Baudrillard, J. Simulacra and simulation. University of Michigan Press. 1994.
7. Castells M. The rise of the network society (2nd ed.). Wiley-Blackwell. 2010.
8. Giddens A. Modernity and self-identity: Self and society in the late modern age. Polity Press.1991.
9. Toffler A. The third wave. Bantam Books.1980.